

ABU RAYHON BERUNIYNING “HINDISTON” ASARI HAQIDA

<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-3-25>

**Karimov Nodir Raxmonqulovich,
Toshkent davlat sharqshunoslik institute
2–bosqich tayanch doktoranti
Abdurazzaqov Abdulaziz Abdushukur o‘g‘li,
Toshkent davlat sharqshunoslik institute talabasi**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asari va uning ilmiy ahamiyati tahlil qilingan. Ma’lumki, “Hindiston” kitobi qadimgi hind xalqi, ularning yashash tarzi, tili, dini va boshqa jihatlari haqida yozilgan mukammal asarlardan biridir. Maqolaga dunyo olimlarining mazkur masalaga oid tadqiqotlari ham keng jalb qilingan.

Kalit so‘zlar: Hindiston, Abu Rayhon Beruniy, sanskrit

О КНИГЕ «ХИНДИСТОН» АБУ РАЙХОНА БИРУНИ

**Karimov Nodir Raxmonqulovich,
Докторант 2-курса Ташкентский государственный
институт востоковедения
Абдураззаков Абдулазиз Абдушукур угли,
студент Ташкентского государственного института востоковедения**

АННОТАЦИЯ

В этой статье анализируется «Хиндистон» Абу Райхона Беруни и его научное значение. Хорошо известно, что книга «Хиндистон» является одной из самых замечательных работ Беруни о древних индийцах, их стилях жизни, языках, религиях и других аспектах. В этой статье также широко используются работы зарубежных исследователей.

Ключевые слова: Индия, Абу Райхан Беруни, Хиндистон, религия, санскрит.

ON THE BOOK OF “HINDISTON” BY ABU RAYHON BIRUNI

**Karimov Nodir Raxmonqulovich,
Tashkent State Institute of Oriental Studies
2nd course doctorate student
Abdurazzaqov Abdulaziz Abdushukur uglu,
student of Tashkent State Institute of Oriental Studies**

ANNOTATION

This article analyzes Abu Rayhon Beruni’s “Hindiston” and its scientific significance. It is well known that the book “Hindiston” is one of the most remarkable work by Biruni about ancient indian people, their life styles, languages, religions and other




aspects. The works of foreign researchers are widely used in this article as well.

Key words. India, Abu Rayhan Beruni, Sanskrit, religions.

Beruniy Hindistonga salkam ming yil oldin borgan. Bu paytlarda olim ancha etilgan, ilmiy mulohazalari va asarlari bilan omma orasida tanilgan edi. U darhol Qadimgi Hind tilini o'rganishga kirishadi. Ungacha esa astronomiya, matematika, falsafaga oid ba'zi kitoblarni Hind olim va tarjimonlari orqali o'rganib bordi va shu tariqa u Qadimgi Hind faniga sho'ng'ib ketadi, uni chuqur o'rganadi. Hatto u Hind olimlari bilan munozaralar olib boradi. Bu holni Beruniyning o'zi quyidagicha bayon etadi. "Men Hindlarning astronomlari qoshida ustozlari oldida turgan shogirddek edim, Chunki ulardagi narsalarga oshno emas edim va vaziyat – ahvollarini bilmas edim. Ular bilan tanishishga bir oz yo'l topolgach, ular hayotidagi qoloqlikni va buning uchun barhamanlarnikidan ba'zi dalillarni ko'rsatadigan bo'ldim [1]. Shunda, ular menga hayron qolib ajablanar va mendan foydalanishga intilar edilar, ular qaysi Hind olimlari bilan uchrashganimni, hatto bu ilmlarimni ularning qaysi birisidan o'rganganimni so'rar edilar. Men esa ularga o'z darajalarimni ko'rsatar va ulardan juda ustun kelar edim. Hatto, meni "sehrgar" deb va ulug' kishilari oldida esa ilm dengizi yo suv deb maqtar edilar. Bu hol esa, suv achib buzilsa, uni tuzatish uchun sirka zarur va aziz bo'ladi, deyilgan maqolni esga keltiradi. Hindistonda ahvolim mana shunday edi. Bu sohaga kiraverish meni charchatdi. Shu bilan birga, o'sha kunlarda ularning kitoblari bor deb gumon qilingan joylardan to'plashga, hech kim tenglasholmaydigan darajada qiziqardim, kitoblarni bekitib qo'yilgan joylardan topib olishga yo'l ko'rsatuvchi kishini oldimga chaqirib, baxillik qilmasdan, mumkin bo'lganicha, unga ehson qilar edim. Shunday kitob vujudga keltirish ishi mendan boshqa kimga muvassar bo'ldi?! Lekin tangri muvaffaqiyat berib, men mahrum bo'lgan harakatlarga qodir bo'lgan kishigagina muvassar bo'lishi mumkin. Men bu harakatlar — buyurish va qaytarish ishlarida "Tut — qo'y" deb hukmronlik qilishdan o'z qiziqchilik qilardim. Ammo kifoya qilarli miqdorda harakatga muvaffaq bo'ldim".

Shu tariqa Hind fanini o'rganishga kirishgan Beruniy chindan ham katta yutuqlarga erishdi, Hind fani, falsafasi, tarixiga oid qimmatbaho fikr-mulohazalarini qoldirdi. Kalkutta universiteti professori S.K.Chatterjining aytishicha, Beruniy Hind muallifining tiliga xos originallikni shunday yaxshi bilardiki, hatto bunday kishilarning o'sha til egasi bo'lgan Hind xalqi ichidan chiqishi ham kamdan-kam uchraydigan voqea edi. Eramizning 1040- yillarida, deydi S.K.Chatterji, bizga ma'lum bo'lishicha, madaniyat olamida Hind, musulmon va elining madaniy merosini bir xilda chuqur, har tomonlama bilgan faqatgina bir kishi bo'lgan, u ham bo'lsa, Beruniy edi. Beruniy, - deydi u, - birinchi hindshunos olim bo'lish bilan birga, barcha davr hindshunoslarining ham eng mashhuridir. Beruniy, bir tomondan, o'zining har tomonlama va aniq ma'lumoti tufayli, ikkinchi tomondan esa, sabr-toqati va ob'ektivligi tufayli insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri hisoblanishi kerak [2].

Eduard Zaxauning fikricha, Beruniy "Hindiston" asarini 1030-yil 30 aprelidan to 1031-yil 19-dekabrigacha o'tgan vaqt ichida yozgan. Ammo Zaxauning bu fikridan qat'i nazar, u ilgari bu ishga kirishib, uncha-muncha tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi




ehtimol. Chunki, ba'zan olim o'rni kelganda ma'lum bir masala munosabati bilan, "bu sohaga oid shunday ish qilmoqchiman yoki falon kitobimda bu to'g'rida batafsil gapirganman" deb ketadi. Beruniy "Hindiston" asarida "Bizcha "Kalila va Dimna kitobi" deb mashhur bo'lgan "Panchatantra" kitobini imkoniyat topib tarjima qilsam, degan orzuyim bor. Chunki bu kitob Abdullo ibn Muqaffa kabi o'zgartirib yubormasliklariga inonib bo'lmaydigan bir guruh kishilar tili bilan Hindchadanforschaga, so'ngra forschadan arabchaga tarjima qilinib keldi. Al-Muqaffa "Kalila" kitobiga o'zidan Barzovayx bobini qo'shdi. Bob orttirib, ishonchsiz bo'lgan kishi tarjimada ham orttirib ishonchsizbo'lishdan chetda qololmaydi",-deb yozadi. Beruniy bu niyatini amalga oshirganmiyo'qmi, hozircha bizga noma'lum.

Endi E. Zaxauning "Hindiston" haqidagi so'ziga qaytsak, shunday qisqa vaqt ichida, - deydi u, bunchalik salmoqli, jumalari o'ta pishiq, tahqiqi zo'r asar yozganiga taajjubda qolasan. Ehtimol, olim bu asarining ba'zi boblarini ilgari yozgan va kitob yozayotganida o'sha joylarini ko'chirib qo'ygan bo'lishi ham mumkin. Har qalay, olim o'zining avvaldan olib borgan ilmiy kuzatishlari natijasida o'ziga kerakli juda ko'p astronomiya va boshqa sohalarga oid kitoblar bilan tanishib, undan foydalangan bo'lishi mumkin. Chunki, - deydi E. Zaxau, - Beruniy o'z asarini juda og'ir bir davrda yozdi. Bu vaqtda Eron, O'rta Osiyoning g'arbini, Afg'oniston va Hindistonning bir qismini birlashtirgan g'aznaviylar imperiyasining qulash xavfi bor edi. Mana shunday sharoitda olim ilmiy kuzatish ishlariga sho'ng'ib ketgan bo'lsa, bu g'alayonlar ayniqsa avjiga chiqqan bir paytda uni tugatishga urindi. "Bu hol o'sha davr siyosiy voqealariga bog'liq ekanligi borgan sari ayonroq bo'lib ko'rinyapti",

Olimning fikriga ko'ra, yer shar shaklida bo'lib uning yarmi ma'lum (g'arbiy yarim shar va yarmi nom'alum (g'arbiy yarim shar) bo'lgan. Yerning shimoliy (ikki) choragidan biri quruqlik bo'lganligidan uning choragi ham quruqlik bo'lishini taxmin qilgan Beruniy u yerning yangi qit'a (Amerika) ekanligini XII-asr boshidayoq "Hindiston" asarida yozib qoldirgan. Olim o'z asarida yer yuzasining tuzilishi, dengiz va quruqlik to'g'risida gapirib: "Yerning choragi ma'muradir. Ma'murani g'arb va sharq tomonidan Muhit okeani (Atlantika va Tinch) o'rab turibdi. Bu Muhit okeani yerning obod qismini dengizlarning narigi tomonida bo'lishi mumkin bo'lgan quruqlik yoki odam yashaydigan orollardan ikkala yoqdan (g'arb

Ulug' ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning boy ilmiy kartografik merosi jahonning turli mamlakatlarida o'rganilmoqda, asarlaridagi ma'lumotlar esa mutaxassislar uchun hamon qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Bu asarning to'la nomi "Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi" 6 bo'lib, bu nom uzun bo'lgani uchun uni qisqartirib "Hindiston" deb atashgan.

Beruniyning bu asarini birinchi bor Zaxau o'rgandi, u yigirma yil mobaynida olib borgan tadqiqotidan so'ng arabcha matn — tekisti bilan o'zi qilgan inglizcha tarjimasini 1881-1888 yilda Londonda nashr etdi. E.Zaxauning ana shu arabcha matni asosida qilingan tarjimalar 1963-ilda rus tilida (A.B.Xolidov va Yu.N.Zavodovskiylar tarjimasini), 1965- yilda o'zbek tilida (A.Rasulov, Yu.Hakimjonov, G'.Jalolovlar tarjimasini) nashr etildi. "Hindiston"ning arabcha matni yana 1958- yilda Hindistonning Haydarobod shahrida nashr etildi. o'z vaqtida Beruniy ijodi bilan chuqur tanishgan E.Zaxau unga,



uning mulohazalariga qoyil qoladi. Hindshunoslikda, -deydi E. Zaxau, - Beruniyga teng keladigan biror olimning undan oldin va keyin bo‘lganini bilmaymiz [3].

Beruniyning “Hindiston” asari sakson bobdan iborat bo‘lib, ularda qo‘yilgan masalalardan olimning naqadar mulohazasi zo‘r, fikr doirasi keng ekanligini tasavvur qilish mumkin. Asarda Hindlarning tangri haqidagi tushunchalari, ularning aqliy va hissiy mavjud narsalar, jonning moddaga aloqasi haqidagi fikrlari, ruhlarning bir tanadan ikkinchisiga o‘tishi (tanosux) haqidagi qarashlari, mavjudotning jins va nomlari, bayramlar, da’volar, meros masalasi, qonun-qoidalar, jazolar, diniy hukmlar, butsanamlarga ibodat qilishning boshlanishi va ularning yo‘sinlari, hindlar grammatikasi, she’r va boshqa sohalarga oid kitoblari, hind o‘lchovlari, xatlari, hisoblari kabi masalalar joy olgan.

Undan tashqari, bu kitob Hindlarning shaharlari, mamlakat chegaralari va ularning boshqa o‘lkalar orasidagi masofalari, yer va osmon to‘g‘risida hamda ularning diniy kitoblaridagi tushunchalar haqida qimmatbaho manba xizmatini o‘taydi.

Asar har bir masala ustida o‘sha davr fani, ma’rifati yo‘l bergan darajada fikr-mulohazalarni qamrab olgan. Unda Hind daryolari, ularning boshlanadigan va quyiladigan joylari, turli-tuman yo‘llar, Hind olimlari e’tiqodicha, dunyoda odam yashaydigan yer qismlari, muddat, vaqt haqidagi tushunchalar, kecha va kunduz, kunning kichik bo‘laklari, eralar, oy va yillarning bo‘laklari, oy manzillari, yetti qaroqchi yulduzlar haqidagi fikrlari, yoritgichlar, ularning bir-biridan uzoqligi va kattaligi, dengiz suvlarining ko‘tarilishi va pasayishi, quyosh va Oy tutilishi kabi masalalarga to‘xtalgan.

Beruniy bu ko‘rsatilgan masalalarning har birini o‘rganib, ular haqida ob’ektiv fikr yuritganini, har bir masalada ahvolni to‘g‘ri tushuntirishga harakat qilganligini, uning o‘z iborasi bilan aytganda “insof va adolat bilan” fikr yuritayotganini yozadi.

Bularning hammasi nazarda tutilganda, bu asarning ushbu turkumdagi boshqa yodgorliklardan butunlay farq qilishi ayon bo‘ladi. Beruniyning “Hindiston” asarini Hindshunoslik fanida o‘rganish juda muhim va zarurligini qayd qilaturib, bu asarning filologik aspektiga alohida e’tibor berish lozim. Bu esa Hind professori Suniti qumar Chatterjining 1951- yilda qalkuttada nashr etilgan “al-Beruniy va Sanskrit” maqolasidan tashqari bu sohada XI- asrdagi hind tili situatsiyasini yoritib bera oladigan va Hindistonning o‘rta asrga oid bo‘lgan lingvistik tadqiqotlar qatoridagi etishmayotgan bo‘limni to‘ldira oladigan hech qanday asosiy ma’lumotlarning mavjud emasligi bilan asoslanadi.

Bu asarni o‘rganishga katta ahamiyat berish yana shuning uchun ham zarurki, Beruniyning ushbu asari noyob va bunday ma’lumotlar beruvchi manbalaorasida kamdan-kam topiladi. Asarning filologik ahamiyati ko‘rsatib o‘tilganidek, hech qanday shubha tug‘dirmasa ham, yana shu narsani ta’kidlab o‘tish lozimki, birinchidan, Beruniy o‘z kitobi ustida ishlash jarayonida 100 dan ortiq Sanskrit manbalaridan foydalandi va, ikkinchidan, “Hindiston”ini tugallagandan so‘ng besh yil o‘tgach, uning o‘zi tomonidan tuzilgan asarlarining ro‘yxatidan ma’lum bo‘lishicha, u yana Hind manbalariga asoslangan 20 dan ortiq asarni sanskritdan arab tiliga tarjima qilgan. Bu jihatdan Beruniyning Sharqda “Kalila va Dimna” nomi bilan mashhur bo‘lgan “Panchatantra”ni qayta tarjima qilish orzusi diqqatga sazovordir, chunki u Ibn al-Muqaffa tomonidan

qilingan tarjimani mukammal emas deb hisoblardi.

Uchinchidan, butun asarda mavjud behisob filologik xarakterga mansub ma'lumotlardan tashqari, Beruniy kitobning 80 bobidan quyidagilarini alohida ajratadi: XII bob – Vedalar, Puranalar va Hindlarning mazhabiy kitoblari to'g'risida, XIII bob – grammatika va poeziyaga oid kitoblar va XVI bob-Hind yozuvi to'g'risida ma'lumotlar.

Eng avval Beruniyning ko'p tillarni bilishi katta qiziqish tug'diruvchi faktidir, chunki u, asarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, ona tilidan, aftidan, xorazmiy tilidan va turk, fors hamda arab tillaridan tashqari yunon va suryoniy tillarini ham mukammal bilgan bo'lsa kerak. Shuning natijasida u, o'z kitobida 20dan ortiq yunon tilidagi asarlarga, jumladan, Gomerning "Iliada" va "Odisseya" eposlariga ilova qiladi va ulardan sitatalar keltiradi.

Bundan tashqari, uning o'zi e'tirof qilishiga qaraganda, "Hindiston" asari ustida ishlash jarayonida Beruniy Evklidning "Boshlanish" va Ptolemeyning «Almagesta» asarlarini sanskrit tiliga she'riy tarjima qilgan. Beruniyning ko'p tillarni bilishini ta'kidlovchi ba'zi bir ma'lumot va qo'shimcha mulohazalar o'z vaqtida nemis sharqshunoslari M., Meyerxof va F. Krenkov hamda rus arabshunosi I.Yu.Krachkovskiylar tomonidan ko'rsatib o'tilgan edi. Beruniyning bir necha tillarni bilishi unga Hind tillarini va shevalarini o'rganishida katta yordam bergan.


Bizning fikrimizcha, Beruniyning tilshunoslikka bo'lgan qiziqishini xarakterlashda uning umuman til, yozuvning ahamiyati, sinonimiya hodisasi va Hind terminlarini arab tili vositalari bilan ifodalash usullari to'g'risidagi ayrim mulohazalariga katta ahamiyat berish lozim.

Bu borada uning quyidagi fikri diqqatga sazovordir: "Til, so'zlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir". Shuning uchun til zamonning bir on kabi turg'un qismi bilan cheklanib qoladi. Agar insondagi so'zlash quvvati hamma joyga shamol singari yoyiluvchi bo'lmaganda edi va zamonlardan zamonlarga nafaslar singari o'tuvchi xat yozish san'atini keltirib chiqarmaganda edi, o'tmish zamonning xabarini, ayniqsa uzoq zamonlar o'tganda hozirgi zamon tillariga qanday ko'chirib bo'lar edi?" [4].

Beruniy bu mulohazasida tilning asosiy funktsiyasi kishilarning aloqa vositasi ekanini aniq ko'rsatadi, og'zaki til va yozuvning munosabatlarini aniqlab, yozuvni til taraqqiyotining yuqori bosqichi deb ta'riflaydi va uni og'zaki tildan yuqori qo'yadi.

Beruniyning muayyan tillarning umumiy xususiyatlari to'g'risidagi xulosalari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, adabiy sanskrit to'g'risida bayon qila turib, u shu narsani ta'kidlaydi: "...ularning tili (so'zga) boy va keng, arab tili kabi, ma'lum bir narsa biron o'zakdan olinib, o'ziga xos qilib belgilangan birmuncha ismlar bilan ataladi, maqsadni ifoda qilishda sifatlarni ko'proq aytishga ehtiyoj tug'iladigan ko'pgina narsalarga bitta ism beriladi". O'z-o'zidan ma'lumki, bu yerda bir xil ma'noga ega bo'lgan so'zlarni tuzish imkoniyatini beruvchi, sanskritga xos bo'lgan va keng ko'lamda qo'llanadigan sinonimiya hodisasi nazarda tutiladi.

Yuqorida aytilganidek, Beruniy eski adabiy til va yangi og'zaki til orasidagi stilistik o'zgarishlarni bevosita ko'rsatib o'tadi. Lekin, bu to'g'rida umumiy ma'lumot berib, u ayrim misollarda ro'y beradigan tafovutlarga jiddiy e'tibor bermaydi.



Shuning uchun Hind tillarining umumiy taraqqiyoti jarayonini tiklashda katta ahamiyatga ega bo'lgan va o'sha davrda Hindistonning shimoli-g'arbiy qismidagi tillarda mavjud bo'lgan sanskrit va yangi Hind elementlarini chegaralash Hind yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini arab alifbesi yordamida grafikifodalanishi masalasiga bog'liq bo'lib qoladi. Bu nuqtai nazar Beruniy asarida ancha mukammal ishlab chiqilgan, chunki metodologik xususiyatga ega bo'lgan mulohazalar shuni taqozo etardi.

Hind so'zlarini arab harflari bilan ifodalashdan avval, Beruniy, aftidan Hind grafikasining spetsifik xususiyatlarini mukammal o'rganib chiqqan. Bu haqda uning quyidagi fikri ravshan dalil bo'la oladi: "Hindlar (alifbesida) harflarning ko'p bo'lishiga sabab (birinchidan), har bir tovushning unli (tovushdan) kelishiga yoki ikki undosh orasida bo'lishiga, yo hamzadan keyin kelishiga, yo harakatmiqdoridan ko'ra kamroq cho'zilishiga qarab, o'ziga maxsus belgisi (harfi) borligidir; (ikkinchidan), boshqa tillarda topilmaydigan undosh (tovush) larning ularda bor bo'lishligidir". Bunday ifodalash uzun va qisqa bo'g'inlarni ajratuvchi Hind grafikasining o'ziga xos xususiyatini original ravishda aks ettiradi va Hind tillariga xarakterli bo'lgan paydo bo'lish o'rnini bo'yicha undoshlarning spetsifikasini nazarda tutadi.

Beruniy tomonidan ko'ribo'tilgan va sotsiolingvistik jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan masalalar qatoriga olimning bosqinchilar va mahalliy xalq o'rtasidagi til aloqalari to'g'risida bergan bevosita va bilvosita ma'lumotlari ham kiradi.

Birinchi navbatda, Beruniy hukmron doira uchun arab va fors vaqtlarini (kunlarini) hindchaga va aksinchaga aylantirishda, aftidan malaka qo'llanma vazifasini o'tagan "al-harkan" kitobiga ilova qilishi juda xarakterlidir. Beruniy ko'rsatgan faktlar asosida tiklash mumkin bo'lgan madaniy aloqa jarayonining bunday konturi Chatterjiy keltirgan faktlar yordamida yanada to'ldirilgan bo'lib, bu narsa shuni aniq ko'rsatadiki, bu jarayonni Hindistonning butun shimoli-g'arbiy territoriyalarida o'z hokimiyatlarini atroflicha tarqatishga intilgan g'aznaviylarning davlat manfaatlari ham taqozo qilgan [5].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Beruniy "Hindiston" asari ayrim qismlarining muhokama qilinishi, bu asarda kelgusida Hind tillari va adabiyotlari sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun imkoniyat yaratuvchi nihoyatda qiziqarli va keng ma'lumotlar mujassamlangan deb hisoblashga asos beradi. Yana shu narsa diqqatga sazovorki, bu asar, birinchidan, tarixiy va qiyosiy-tarixiy grammatika hamda ijtimoiy tilshunoslik nuqtai nazaridan, jumladan, tilshunoslikning toponimika, paleografiya, etimologiya, terminologiya, mifologiya kabi sohalari bo'yicha, shuningdek, fonologiya, morfologiya va boshqa rejalarda kelgusida o'rganilishi mumkin.

Beruniy asariga umumiy baho berishda hozirgi zamonning ko'zga ko'ringan Hind tilshunoslaridan biri Suniti Kumar Chatterjiyning fikri e'tiborni jalb etadi. U, masalan, shuni ta'kidlaydiki: "Mahmud G'aznaviy askarlari safida Hindistonga kelgan turk bosqinchilari Hindlar orasida mavjud butparastlikka qarshi bo'lib, xudolar tasvirini qirib tashlar edilar, lekin ularning orasida "hindlarning muqaddas tili sanskritni o'rgangan, o'zidan keyin XI-asr Hindiston tarixiga sidqidildan bag'ishlab asar qoldirgan Abu Rayhon Beruniy kabi haqiqiy olimlar bo'lgan". Shuning uchun, agar biz yuqorida aytilganlarga asoslanib, Beruniy Hind filologiyasining ustozidir deb aytsak mubolag'a



bo‘lmaydi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абу Райҳон Беруний, “Ҳиндистон”. – Тошкент: Фан, 1965. –Б. 40.
2. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар, 2 жилд – Тошкент : Фан, 1965. – Б.36.
3. Семенов А.А. Беруний - выдающейся учени средневековья. – Ташкент: Фан,1950. – С.275.
4. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар, 2 жилд. – Тошкент: Фан, 1965. – Б.31.
5. Ирисов А. Беруний “Ҳиндистон”и. Беруний туғилган кунининг 1000 йиллигига бағишланган тўпламдан. – Тошкент: Фан, 1973. –Б. 139.